

Amir Temur



Amir Temur, Temurbek



Temur, Temurbek

[1336 yil 9-aprel Kesh (hozirgi Shahrissabz) shahri yaqinidagi Xoja ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani) – 1405 yil 18-fevral O'tror shahri, Samarqandda dafn etilgan]

(1370-1405)

To'liq ismi Amir Temur ko'ragoniy ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Burqul bo'lgan bu buyuk tarixiy shaxs o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysidir. Yozma manbalarda u *Temurlang*, Yevropa adabiyotida *Tamerlan* nomlari bilan ta'riflanadi. Amir Temurning onasi **Takinaxotun** buxorolik mashhur faqih **Toj ash-sharia** (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo'lgan **Ubaydulla ibn Mas'ud**ning avlodi (1350 yil vafot etgan) edi. Uning otasi **Amir Tarag'ay** barlos urug'ining oqsoqolilaridan bo'lib, Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari esa Chig'atoy saroyi mulozimlari qatoridan o'rin tutgan. Ular Kesh va Nasaf viloyatida o'z mulklariga ega bo'lgan va bu yurtda hokimlik qilgan. Shu boisdan Amir Temurning otasi **Amir Tarag'aybek** ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo'yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt bek va biylarining umum qurultoyiga taklif etilar va bunday yig'inlarda qatnashardi. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga beradi. U yoshlik chog'laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan nishonga o'q uzish, ot choptirish turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga

yetadi. Uning atrofida bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib shakllana borishadi. Bu guruh orasida **Abbos Bahodir, Jahon Shohbek, Kimori Inoq, Sulaymon Shohbek, Sayfuddinbek** va boshqalar bo'lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo'shinida lashkarboshilik darajasiga ko'tarilganlar. Amir Temur tabiatan og'ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinlik chog'laridayoq tengqurlaridan sadoqatli do'stlarni atrofga jalb qila olgan. O'zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida mahorat va oliyhimmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong'i butun Qashqadaryo vodiysi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan.

Amir Temur aql-zakovati, shijoati va jasorati to'g'risidagi shuhrat uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan avval **Joku Barlos**, so'ngra **Amir Qazog'on** (1346-1358) bilan yaqinlashtirgan. Otasi Amir Temurni avval (1352) Amir **Joku Barlos**ning qizi **Turmish Og'oga** uylantiradi. 1362 yilda Amir Temur Qazog'onning nabirasi, **Amir Husayn**ning singlisi **Uljoy Turkon Og'oni** o'z nikohiga oladi. Keyingi nikoh tufayli Balx amiri bilan bog'langan qarindoshlik aloqalari shubhasiz Amir Temur bilan Amir Husayn o'rtasidagi ittifoqni yuzaga keltirdi va Mo'g'ullarga qarshi jiddiy kurash boshlandi.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi dastlabki harakati XIV asrning 60 yillar boshlaridan boshlangan. XIV asrning 50 yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, **Amir Qazag'on** o'ldirildi. Oqibatda mamlakatda siyosiy parokandalik vujudga kelib ulus bir qancha mustaqil bekliklarga bo'linib ketadi. Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan **Tug'luq Temur** va uning vorisi **Ilyosxo'ja** 1360-1361, 1365 yillarda Movarounnahrda bir necha bor bostirib kiradilar. Biroq Movarounnahr aholisi mog'ullarga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Kesh viloyatining hukmdori **Hoji Barlos** Xurosonga qochadi. Mana shunday og'ir pallada Amir Temur maydonga kiradi. Kuchlar teng emasligini hisobga olgan Amir Temur 1360 yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o'tib, uning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi etib tayin etiladi. Biroq, ko'p o'tmay Movarounnahrning humdori etib tayinlangan **Ilyosxo'ja** bilan Amir Temur murosasi kelishmay qolishi natijasida 1361 yilning oxirida mamlakatni tark etib, Xorazmga yo'l oladi. U yerda amir **Husayn** bilan uchrashadi va mog'ullarga qarshi kurashda ikkovlon birlashib, kuch to'plashga kirishadi. Dastlab ular, **Tug'luq Temurxon**ning farmoniga binoan Amir Temurni ta'qib qilishga kirishgan Xiva dorug'asi **To'qol** (Tavakkal) bilan jang qildilar. So'ngra 1362 yilning kuzida Seistonda viloyat hukmdori **Malik Qutbiddin**ning tarafida turib, mekroniyalar bilan bo'lgan to'qnashuvda, Amir Temur o'ng kifti va o'ng oyog'idan jarohatlandi. Nihoyat, **Ilyosxo'ja** boshliq Jeta lashkalari bilan bir necha marta jang qilib, mo'g'ullarni Movarounnahr hududidan 1364 yil oxirida quvib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Biroq, **Ilyosxo'ja** 1365 yili bahorida Turkiston ustiga qo'shin tortadi. Toshkent va Chinoz o'rtasida sodir bo'lgan "*Loy jangi*"da amir **Husayn**ning hiyonati oqibatida Amir Temur qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi.

Samarqandni o'z qo'liga olgan mo'g'ullarga qarshi xalq ko'tarilib, shahar mudofasini o'z qo'liga olgan sarbadorlar mog'ullarni mamlakatdan butunlay haydab chiqardi. Bundan xabar topgan

amir **Husayn** tomonidan sarbadorlar boshliqlari qatl ettiriladi. Natijada, 1366 yili amir **Husayn** Movarounnahrda hokimiyatni o'z qo'liga oladi, ammo ko'p o'tmay amir **Husayn** va Amir Temur o'rtasidagi munosabat keskinlashib ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. Ular o'rtasida 1366-70 yillarda bir necha bor to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Amir **Husayn**ga qarshi Balxga yo'l olayotgan Amir Temur Termiz yaqiniga kelganda makkalik shariflardan **Sayyid Baraka** Amir Temur faoliyatini qo'llab quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi katta nog'ora – *tabl* bilan *yalov* – bayroq tortiq qiladi. 1370 yili 10-aprelda Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Bu g'alabadan so'ng Amir Temur chingiziylardan bo'lgan **Qozonxonning** qizi **Saroymulxonimni** o'z nikohiga oladi va “*ko'ragon*” unvonini olishga muyassar bo'ladi. Garchi saltanat taxtiga, an'anaga ko'ra dastlab nomigagina **Suyurg'atmish** (1370-1388), so'ngra uning vafotidan keyin **Sulton Mahmud** (1388-1402) o'tqazilgan bolsa-da, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqarar, viloyatlardagi hokimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilardi.

1372 yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi. Biroq tarixiy voqealarning taqozosi bilan Amir Temur Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi. Xorazm 1388 yilda uzil-kesil Temur davlatiga qo'shildi. Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda tarqoqligiga va o'zaro nizolarga zarba berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo'lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Amir Temur davlatiga Mog'uliston davlatining doimiy hujumini bartaraf etish uchun yigirma yil (1371-1390) mobaynida Mog'ulistonga yetti marta yurish qilib, Mo'g'ul hukmdorlari **Anqoto'ra** va **Qamaruddin** ustidan g'alaba qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan tarqoqlikka, o'zaro nizo va Mo'g'uliston tomonidan bo'lib turgan tazyiqqa chek qo'ydi. Sohibqiron bu bilan qanoatlanmay, qo'shni davlatlar ustiga yurish qilib, ularni o'ziga bo'ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Sohibqiron harbiy yurishni Xurosondan boshlaydi. 1381 yili Amir Temur Hirotni egallaydi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ladi. 1381-1384 yillar davomida Eronning katta qismi bo'ysundiriladi. Avval (1381) *Kalot*, *Turshiz* va *Sabzavor*, keyin (1383) *Seistonning Zireh*, *Zova*, *Farah* va *Bust* qal'alari, 1384 yilda esa *Astrobod* viloyati va Ozarbayjonning *Omul*, *Sori*, *Sultoniya* va *Tabriz* shaharlari bo'ysundiriladi. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga uch marta lashkar tortdi.

Bu yurishlar tarixda “*uch yillik*”, “*besh yillik*”, “*etti yillik urush*”lar nomi bilan mashhur. *Uch yillik* (1386-1388) harbiy yurishlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi. Amir Temur shu bilan birga shimoli-g'arbdan, ya'ni Oltin O'rda tomonidan bo'layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida **To'xtamishga** qarshi uch marta qo'shin tortadi. 1389 yilda Dizakning *Achchiq* mavzeida, 1391 yili *Qunduzcha* jangida, 1395 yil *Tarak* daryosi bo'yidagi janglarda g'alaba qozonib, dushman qo'shinini tor-mor etdi. Amir Temurning **To'xtamish** ustidan qozongan g'alabasi, faqat O'rta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi. Shundan so'ng, Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. U *besh yillik* (1392-1396) urushi davomida G'arbiy Eron, Iroq, Ajam va Kavkazni egallaydi. Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan g'azovoti (1398- may-1399 yil mart) qariyb o'n bir oy davom etadi. Hindistondan u katta o'lja, shu jumladan 120 ta

jangovar fillar bilan qaytadi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga tarqatilib, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga ishlatiladi. 1399-1404 yillardagi yetti yillik urush, eng shiddatli va eng yirik janglardan bo'lib, uning oqibatida Shomning *Xalab, Kumis, Baalbek, Dimishq* (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning *Ubuliston* o'lkasi bilan Bag'dod, shuningdek Turkiyaning kattagina qismi fath etiladi. Natijada ikki buyuk sarkarda: Sohibqiron Amir Temur bilan sulton **Boyazid Yildirim**larning to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi. Chunki tobora kuchayib borayotgan bu ikki turkiy davlatlarning har biri ikkinchisi uchun nihoyatda kuchli raqibga aylangan edi. Bir tomondan, Yevropa ritsarlariga qaqshatqich zarba berib, Bolqon yarim oroli bo'ylab, g'arbga tomon o'z hududlarini kengaytirayotgan Usmonlilar davlati uchun Amir Temurning markazlashgan kuchli davlatini qaror topishi qanchalik xavfli tuyulsa, Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar davlatining kuchayishidan Amir Temur ham shunchalik manfaatdor edi. Amir Temur hayot-mamot yo'lida **Boyazid Yildirim** bilan bo'ladigan jangga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi. Nihoyat Rumba yuzlanib, avval *Qamoh* qal'asini fath etadi, so'ngra *Anqara* shahrini qamalga oladi. Amir Temur bilan **Sulton Boyazid** qo'shinlari o'rtasidagi so'nggi va hal qiluvchi jang 1402 yil 20-iyulda Anqara yaqinida *Chibukobod* mavzeida sodir bo'ladi. Bu jang tarixda "*Anqara jangi*" nomi shuhrat topadi. Uch kun davom etgan bu jangda Amir Temur g'alaba qozondi. Amir Temur Usmonli turklari davlatini saqlab qoldi va Boyazid vorislariga muruvvat qo'lini cho'zdi.

Shunday bo'lsa-da, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli **Karl VI** (1380-1422), Angliya qiroli **Genrix IV** (1399-1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli **Genrix III** (1390-1407) tabriklab, unga o'z muborak nomalarini yubordilar. Chunki Sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404 yilning 27-noyabrida 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi (1405 yil 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur vafot etganda, uning xotinlaridan to'rtasi – Saroy Mulk xonim, Tuman og'o xonim, Tukul xonim va Ruh Parvar og'o xonimlar hali hayot edilar. Shuningdek, Amir Temur vafot qilgan vaqtda undan ikki o'g'il, 19 nevara va 15 chevvara, jami 36 shahzoda hayot edi. Bulardan tashqari sohibqironning kichik qizi – Sulton Baxt begim va katta qizi – Og'o begimdan tug'ilgan o'g'il – Sulton Husayn Mirzo nomli nevarasi ham bor edi. Tarixiy ma'lumotlarning dalolaticha sohibqiron Amir Temur o'n sakkiz marta uylangan. Bundan tashqari u 22 nafar xos kanizaklarini ham o'z shabistoniga mahram qilgan.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar va jang'u jadallarni amalga oshirdi. Ko'p mamlakatlar zabt etildi. Oqibatda Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Ila daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. Bu mamlakatlardan Amir Temur katta o'ljalar bilan bir qatorda ko'zga ko'ringan olimlar, hunarmandlar va mohir ustalarni Samarqand, Shahrisabz va Buxoroga ko'chirib olib keldi. Bu shahar va qishloqlar obod qilindi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta

qurdirdi. *Bag'dod*, *Darband* va *Baylakon* shaharlarini qayta tikladi. Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'-u bo'stonlar barpo etdi. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi. A

mir Temurning harbiy yurishlari, jang-u jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalari jihatidan ikki bosqichga bo'linadi. **Birinchi bosqich** (1360-1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida kurashdi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo'lida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etdi. Amir Temur faoliyatining **ikkinchi bosqichi** (1386-1405)da olib borilgan "uch yillik", "besh yillik" va "etti yillik" harbiy yurishlarni amalga oshirib, Oltin O'rda, Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Hindistonni zabt etdi.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratilib, u "*Temur tuzuklari*" nomi ostida shuxrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og'zidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalari yo'nalishi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi. Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanqa bilimni qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan. Amir Temur hayotligi chog'ida saltanatni asosan to'rt qism (ulus)gab o'lib, o'g'il, nabiralarga taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston (markazi Xiro) Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armoniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheroz) Umarshayxga, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G'azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg'ol qilib berilgan. Amir Temur davlati o'ziga xos tartib qoidalarga asoslangan holda idora qilingan. Amir Temur asos solgan bu davlat Xuroson va Movarounnahrda XVI asr boshigacha mavjud bo'lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan. Amir Temur imom **Sayyid Barakani** o'zining piri deb bilgan. **Sayyid Baraka** Temur qilich bilan nimaniki qo'lga kiritgan bo'lsa, shularni toat-ibodat hamda vatvolar berib, dugo'ylik bilan mustahkamlab berishga harakat qiladi.

Amir Temur haqidagi birinchi kitob 1553 yili Florensiya (Italiya)da chiqqan. Italiyalik olim **Perondini** qalamiga mansub boshqa shu asrda ispan tarixchisi **Pero Meksikaning** "*Buyuk Temur tarixi*" degan asari ham chop etildi. 1582 yili Seviliyada mashhur Ispaniya elchisi **Klavixoning** "*Esdalıklar*"i nashrdan chiqdi. Ingliz dramaturgi **Xristofor Morloning** "*Buyuk Temur*" degan sahna asari ham shu asrda yaratildi. Sho'rolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib, bir yoqlama baho berib kelindi. O'zbekiston Mustaqillikka erishganidan so'ng, bunday qarashlarga barham berildi. O'zbekistonning birinchi prezidenti **Islom Karimov** say-harakati bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni o'z

joyiga qo'yila boshladi. O'zbekistonda uning faoliyatini o'rganishga va uni ommalashtirishga keng yo'l ochildi. "*Sohibqiron Amir Temur shaxsi uning ajdodlari bo'lmish faqat bizning ema, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning butun ma'rifiyinsoniyatning boyligi*"ga aylandi (I. Karimov). Uning nomi O'zbekistonda abadiylashtirildi. Ko'plab shahar va qishloqlardagi shoh ko'chalar, maydonlar, jamoa xo'jaliklari, maktablar, kinoteatrlar va boshqalar uning nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnomaligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o'rnatildi. Toshkentdagi Amir Temur hiyobonida *Temuriylar davri muzeyi* barpo etildi (1996), "*Amir Temur*" ordeni ta'sis etildi (1996) va *Xalqaro Amir Temur jamg'armasi* tashkil qilindi (1995). Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va she'riy hamda nasriy asarlar yaratildi.

2023-10-29 23:44:23